



## INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF JUSTICE IN THE RENAISSANCE (REBIRTH PERIOD)

**Ergashev Maftunqli Asror o'g'li**

Master's student, Samarkand Pedagogical Institute

e-mail: [ergashevmaftunqli371@gmail.com](mailto:ergashevmaftunqli371@gmail.com), +998977096965

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19554711>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 12<sup>th</sup> April 2026

Online: 13<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*Renaissance, Kant, justice, scholasticism, Rousseau, Utopia, social justice, law, government, state.*

### ABSTRACT

*This article analyzes the concept of "justice" and its interpretations during the Renaissance period, which served as a foundation for political, economic, social, and cultural enlightenment following the end of the scholastic era. It examines the views and ideas of the leading philosophers of that time, highlighting their significance and value not only for their own era but also for the present day. At the same time, the article also considers the role and practical aspects of these ideas in the development of society in today's era of globalization.*

## RENISSANS (UYG'ONISH DAVRI)DA ADOLAT TUSHUNCHASINING TALQINI

**Ergashev Maftunqli Asror o'g'li**

Samarqand pedagogika instituti, Magistr

e-mail: [ergashevmaftunqli371@gmail.com](mailto:ergashevmaftunqli371@gmail.com), +998977096965

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19554711>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> April 2026

Accepted: 12<sup>th</sup> April 2026

Online: 13<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

*Renssans, Kant, adolat, sxolastika, Russo, Utopiya, ijtimoiy adolat, qonun, hukumat, davlat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada sxolastik davrning nihoya topishi bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy oydinlashishiga asos bo'lib xizmat qilgan Renssans davrida „adolat“ tushunchasi va uning talqin etishda o'sha davrning yetakchi faylasuflarining fikrlari hamda g'oyalarining nafaqat o'z davri uchun balki bugungi kun uchun ham ahamiyati va qadri tahlil qilinadi. Shu bilan birga bugungi globallashuv davrida ushbu g'oyalarning jamiyat rivojidadagi o'rni va amaliy jihatlariga ham nazar tashlanadi.*

Adolat tushunchasi insoniyat tafakkur tarixi taroqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, insonlararo munosabatlardan tortib to davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga daxildor tushunchadir. Shu bilan birga bu

tushuncha nafaqat insonlararo balki davlat hamdajamiyat o'rtasidagi munosabatlarni belgilab beradigan mezon ham hisoblanadi. Ayniqsa, Uyg'onish davri falsafasida adolat nafaqat axloqiy fazilat, balki ilohiy



qonuniyat, jamiyatni boshqarishning asosiy tamoyili va inson kamolotining mezoni sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ham bu davrdagi adolat tushunchasini o'rganish, uni bugungi kun kontekstida tadqiq qilish, o'rganish, shu bilan birga sotsial maydonda tatbiq qilish juda muhim deb bema'lol aytishimiz mumkin. Bugungi jadal globallashuv sharoitida adolat, ijtimoiy munosabatlar, huquq va majburiyat hamda ma'suliyat masalalari yanada ahamiyatli bo'lib borayotgani hech birimizga sir emas. Modern jamiyatlarda yuzaga kelayotgan turfa ziddiyatlar, axloqiy tanazzul, adolatsizliklar bugungi adolat konsepsiyasini qayta tahlil qilish va uning g'oyaviy shu bilan birga amaliy ahamiyatini ochib berishni va to'g'ri tahlil qilishni eng muhim vazifa sifatida oldimizga ko'ndalang qo'yadi. Eng asosiysi, milliy va ma'naviy qadryatlarimizni tiklash, ularning darajasini har qachongidan ko'ra oshirish, diniy-ma'rifiy merosni ilmiy asosda o'rganish va o'rgatish jarayonida falsafiy ma'noda adolat talqinini zamon talablaridan kelib chiqib yanada chuqurroq o'rganish hamda ijtimoiy ongda idrokini ta'minlash har doimgidan ahamiyatlidir.

Yuqoridagilarni xulosalaydigan bo'lsak, Uyg'onish davri falsafasida ilgari surulgan adolat tushunchasining mazmun-mohiyatini falsafiy, axloqiy va ijtimoiy talqin hamda tahlil qilish, shu bilan birga, ushbu ilgari surulgan fikrlarni bugungi davr uchun ahamiyatini ko'rsatib berish mazkur maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari falsafa, dinshunoslik, axloqshunoslik fanlari rivojiga hissa qo'shish bilan birga, adolat tamoyillarini

jamiyat hayotiga tatbiq etishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rta asrdagi „qul-inson“ kabi bir qarashni so'roqlay boslangan renissans davrida „axloq“ , „yaxshilik“ , „yaxshi inson“ tushunchalari ham turlicha tarzda izohlana boshlandi individuallik va sotsiallik tarozusining ahamiyat o'rtaga chiqishi bilan birga qanday yashashim lozim? Men kimman? Kabi savollar so'roqlanishi boshlandi. Renissans yangi bir davrning boshlanishi bo'lib, bunda insonning tadqiqot obyekti „inson“ yani o'zi bo'lib, tabiat bilan inson, Tangri va inson munosabatlari yana tadqiqot kun tartibiga kelgan edi. Bu davrda yana siyosiy avtoritetning asosiy manbai masalasi o'rganila boshlandi. Tabiiy huquq va ilohiy huquq bir biri bilan qarshi qarshiga qo'yilib, qul zehniyati o'rniga vatandoshlik tushunchasi hokim bo'la boshlagan edi.

Xususan, Makiavelli inson tabiatining nima ekani haqidagi masala borasida fikr yuritgan fatlasuflardan biri bo'lib, u inson tabiati tamalda yomon emasligini ta'kitlab uning o'rniga bir qancha mayillari, ishtahalari, istaklari boriligini , biroq u salbiy sifatdagi mayil, istak hamda ishtahalarning bostirilishi insonni yomon qilmaydi. Qisqa qilib aytganda insonlar xudbindirlar, mol-dunyoga haddan tashqari ahamiyat beradilar: „...yashirishning hojati yo'q ko'pchilik insonlar nonko'rdir, qo'rqqoq, ochko'z,



barcha narsani narxlash harakatida bo'lgan yaratilardir"<sup>1</sup>.

Montegin kishining tug'ulishdan hur ekanligini qabul qiladi. U o'zining „Tajribalar“ asarida bazi bir mezonlar, qonun-qoidalar kabi bir qancha zanjirlarga hib etaniz deya ta'kitlasada shaxsiy hamda ijtimoiy hayotimiz uchun qonunlarning ahamiyatini, unung bir parchasi ekanligini aytib o'tgan.

Chunki, Monteginga ko'ra, mezon bo'lmagan yerda urush, mojarolar, haqsizlik mavjuddir. Shu sababli „...men xizmat etayotgan qonunlar jimjilog'imni qul etmoqqa harakat qilsalar, boshqa yerlarga bosh olib ketardim, boshqa qonunlar izlardim“ deya ta'kitlaydi faylasuf.

Insoniyat tarixning mistiklardan tortib sotsiologlarga barcha bo'lgan, butun ta'limotlarda mukammal jamiyat yani utopiya yaratishgan bo'lgan urinishni ko'rishimiz mumkin. Mukammal yoki ideal bir jamiyat qurish g'oyasi diniy bir asosga tayangan bo'lsa, bazan mukammallikka intilib, sotsial, siyosiy, iqtisodiy va ta'lim tashkilotlarini bir butun holda tutgan kompleks bir sotsial tizim yaratish g'oyasi sifatida namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Utopik tushunchadagi inson tuhunchasi insonning tabiatida yaxshi ekanligiga ishonchdan kelib chiqqan. Utopiklarga ko'ra, insonlarning tabiiy xarakter-xususiyatlari ma'lum andozalarga solinishi mumkin.

Tomas Morning(1478-1535) „Utopiya asari ham adolat, tenglik hamda axloq kabi fazilatlar asosiga tayanganini

ko'rishimiz mumkin. Platonning „Davlat“ asaridan ta'sirlanib yozilgan „Utopiya“ asaridagi quydagi jumlar ham faylasufning utopiyaga bergan ahamiyatini ko'rsatadi: „Utopiya davlatining bir qancha xususiyatlarini biznin o'lkada ham ko'rishni istar edim. Bir umiddan ziyoda bir tilakdir bu“<sup>2</sup>. Tomas Morning ideal davlati fuqarolarining baxtli yashashi bilan cheklanmasdan kasallardan to shifoxonalarga qadar butun hayotning barcha qirralarini qamrab olgan holda tartibga solinadi. Bunga qaramasdan qattiqqo'l bir boshqaruv natijasida bularga erishilmaydi. Baxt hamma narsaning boshida bo'lib siyosiy tuzumning asosiy maqsadi ham baxt hisoblanadi.

Tomas Mor ham xuddi Plaron kabi erkaklar va ayollarni yaratilish jihatidan bir deb hisoblab, har ikkisiga bir xi ta'lim va bir xil sharoitlarda bir xil muomala qilinishi fikrini ilgari suradi. Tomas Morning Utopiya davlati bir orolda bo'lib ellik to'rtta katta shahardan iborattir.<sup>3</sup>

Italiyalik mashhur faylasuf Kampenella (1568-1639) „Quyosh o'lkasi“ asarida o'zining utopik davlati haqida so'z yuritadi. Unga ko'ra, Hind okianidagi Quyosh o'lkasi hisoblangan katta bir orolni buyuk rohib nomi berilgan rohib tomonidan boshqariladi. Boshqaruv ishlarida unga Pon-xavfsizlik ishlari vaziri, Sin-din ishlari vaziri, Mor-sevgi hamda sog'lik ishlari vazirlari yordamchidirlar.

Kampella tasavvur etgan Quyosh o'lkasi davlatida bolalar tug'ulishi bilan

<sup>1</sup> Makiavelli Hukmdor. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 69 bet

<sup>2</sup> T.Mor, Utopiya, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 30 bet

<sup>3</sup> T.Mor, Utopiya, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 67 bet



ota-onasidan olinib „yaxshi” inson bo’lishlari uchun davlat nazoratida tarbiya qilinib, ulg’aytiriladi. Oilalarini umuman tanimagan ushbu nazoratdagi bolalar umumiy to’rt soat ishlab, qolgan vaqtlarini go’zal san’atlar bilan shug’ullanishga hamda ibodaga sarflaydilar. Kampella oilani bolalar yetishtirishda zararli deb hisoblagan. Ko’rinib turibdiki, Kampella oilani go’yoki davlatga dushman sifatida ko’rgan. Bu utopiyada tasvirlanganlari aslida avtoritar davlat boshqaruv shaklining insonni e’tobordan tashqari bilgan „adolat”ni tushunish shaklidir. Xolbuki, davlatning yuzaga chiqish jarayoni, uni boshqarilishining butun harakatlantiruvchi kuchi insondir va barcha boshqaruv sistemalari, butun ijtimoiy institutlar insonlarning fikr erkinligiga, faoliyatlarida cheklovlarisiz, erkinlikni taminlashi kerak bo’lgan shaklda tuzulishi shartdir. Chunki, J.J.Russoning fikricha yashash shunchaki, nafas olish emas faoliyatdir. Butun organlariniz, tuyg’ularimiz, qobiliyatlarimiz bizga ato etilgan nimaki bo’lsa ularni erkin ishlarmoq va foydalanmoqdir.

O’n yettinchi asrda shakillangan „tabiiy huquq” maktabining qarashlariga e’tibor beradigan bo’lsak, ular: erkinlik, tenglik, adolat insonning tug’ulgandan ega bo’lgan haqlaridir. Yana shuni takidlash kerakki, manipulyativ rejimlarga qarshi isyonlar „tabiiy huquq”ning mavjudlik sabablaridan biridir. Boshqa bir sabab esa iqtisoddir. Shaxsning tabiiy haqqi bo’lgan erkinlikning yonida ijtimoiy kelishuvga

amal qilishi kerakligini ilgari surgan ushbu maktab inson huquqlarining nazariy asoslarini yaratganini ko’rishimiz mumkin.

J.J.Russo o’n sakkizinchi asrda „tabiiy erkinlik” hamda „ijtimoiy erkinlik” deya ikki tur erkinlik shaklini o’rtaga tashlaydi. Shaxs tug’ulganda tabiiy holda, hech bir ijtimoiy javobgarliklarsiz yashar ekan u tabiiy erkinlikka egadir. Vaqt o’gan sayin ulg’ayib ijtimoiylashib borgani sari ijtimoiy erkinlikka ham erga bo’lib boradi. Jamoa azosi bo’lgan har bir kishi o’zini butun haq-huquqlari bilan o’zini u jamoaga bog’laydi va mana shu ijtimoiy erkinlikdir. Ijtimoiy hamkorlik shartlari bilan o’zini jamoaga bog’lagan shaxs uchun shaxsiy tizim hamiyatli emas balki, jamoaviy tizimdir. Mabodo biror kishi jamoaviy intizomga o’z shaxsiylikidan kelib chiqib zit harakatlar qilishini boshlasa butun jamiyat uni maqul harakatlarda bo’lishiga majbur etadi. Bu esa u kimsa erkin inson bo’lishga qiynalyapti demakdir.

Ijtimoiy kelishuv va umumiy intizom tushunchalari orqali o’ziga xos xalq tushunchasini yaragan Russoga ko’ra, insonlarning yuqoridagi kabi birlahishlari hamda o’z o’ziga nisbatan hukm etuvchi bo’lishlari nizo va boshboshdoqlikni oldini oladi. Chunki, har bir kishining individual istaklari jamiyat uchun xavfli bo’lishi mumkin.<sup>4</sup> Sababi endi kishilar bir bir birlari bilan bitta jamiyat bo’lib yashamoqdadir. Shunday ekan bu birgalikda yashashning barcha xavfsizligi taminlanishi kerak. Bunday xavfsizlikni

<sup>4</sup> J.J.Russo, Ijtimoiy shartnoma, TRUST AND SUPPORT nashiryoti, 2024, 23 bet



esa hukumatning qo'ygan qonunlari, boshqarish tizimi hisoblanadi.

Kant va Fichte nuqtai nazariga ko'ra, avvalo o'z aqlimizning belgilab bergan axloq qoidalari bilan yani hurlikni hurlik uchun, adolatni adolat uchun istashimiz shart ekaniga ishonib tabiiy erkinligimiz bilan sotsial erkinligimizni muvozanatda tutishimiz mumkin ekanligini ilgari surar ekan bunda adolat tushunchasini erkinlik-axloq, vazifa-amal juftligi nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

Kantning fikricha, biz nimani istab, nimani istamasligimizning hadlarini belgilayotganimizda ilk namoyon bo'ladigan narsa bu to'g'ridan to'g'ri idrok qiladiganimiz axloqiy qonunlardir. Axloqiy qonunlar bizni to'g'ri bizni ozodlik tushunchasiga yetaklaydi. Kishi uchun tashqaridan kelgan har qanday cheklovning ahamiyati yo'q, u nima istashini biladi. O'z hatti harakatlarini faqatgina aqli belgilab bergan axloq mezonlari nazorat qilishini istaydi. Shuning uchun ham kishining butun harakatlarini nazorat qiluvchi, belgilab beruvchi nimaki bo'lsa bu uning aqli bo'lishi lozim. Kant adolat tushunchasi ustida aql yuritar ekan uch farqli jihatlarga e'tibor qaratadi. Bular rim huquqiga tayangan holda: buyuk qonun, hech kimga ziyon bermaslik, har kimga hissasini ber tamoyillaridir. Uchunchi tamoyil hisoblangan „har kimga hissasini ber“ bu adolatning mumtoz tarifi hisoblanadi. Kantning falsafasida adolatning eng tamalida yotgan narsa har doim ozodlik hisoblanadi.

„Men harakat etyapman u holda mavjutman“ deya takitlagan Fishtening fikrlariga e'tibor berdigan bo'lsak, uning mavjud ekanligini idrok

ettirgan narsa harakat bo'lgan bo'lsa, bu narsa ayni paytda ozod ekanligi ma'nosida keladi. Yani erkin bo'lish, hatti-harakatlar ashqaridan u uchun belgilab berilgan maqsadlar uchun emas, o'z o'zini maqsad deb bilishi kerak. Rostmana axloqiy hatti-harakat erkinlikni erkinlik uchun istamoqdir. Bundan anglaymizki, ozodlik tayyor holda berilgan hadiya emas, balki amalga oshiriladigan vazifadir. Fishte shaxs erkinligini boshqalarning erkinligi bilan chegaralaydi. Chunki kishi erkinligi boshqalarning erkinligidan ajralgan holda bo'lmaydi. Boshqalarning ozodligiga hurmat ko'rsatgan taqdirimizdagina biz ham erkin bo'lolamiz. Inson bir jamiyatda yashayotgan boshqa insonlarning erkinligini hurmat qilgan holda o'z zavq va istaklarini o'z irodasi bilan haddidan oshmasdan chegaralay bilishi shart. Ozodlik shu bilan bir qatorda tenglik va adolat zaruriy vazifa hamda qadryatdir.

Qonunlarning haq-huquq va erkinlikning himoyachisi bo'lishi kerakligini ilgari surgan uyg'onish davri faylasufi Sharl Montesko shunday fikrlarni bildiradi. Unga ko'ra insonlar ustidan „mahorat“ yo'li bilan yaratilgan bosimni oldini oladigan, erkinlikni ta'minlaydigan vosita bu qonunlardir. Bosim hamda terror inson tabiatiga zid bo'lib, bu kabi qadryatlar ishonchli himoya ostiga olinishi kerak. Bu esa despotezmga yo'l qo'ymaslik, siyosiy erkinlik, qonunlarning ustuvorligini ta'minlash bilan mumkin bo'ladi. Bundan tashqari adolatli, o'zaro teng va ozod ideal siyosiy tuzumni yaratish mumkinligini ilgari surgan faylasuflardan A.Simit, J.Lok, J.S.Mill leberalizmning eng asosiy falsafasini



paydo bo'lishida eng asosiy rol o'ynaganlar. Leberalizm o'rta asrlar feodalizmining parchalanishi hamda hunarmandlar, bank egalari, tijoratchilardan tarkib topgan o'rta sinf vakillarining siyosiy va ijtimoiy haq-huquqlari uchun astokratiya bilan boshlagan kurashi boshlangan 17-asr boshlarida yuzaga kelgan. 18-asrning ikkinchi yarmiga kelganda esa leberalizm eski eristokratiya tartiblariga qarshi tizimli nazariy g'oya tusini oldi. Leberal harakatlar 18-asr G'arb tafakkur tarziga kuchli ta'sir etgan uyg'onish davrining yaratuvchilari bo'lgan reformachilar tomonidan amalga oshirilgan. Avvalo insonning taraqqiy etishiga to'siq bo'lgan monarxiya va cherkov dogmalariga qarshi kurash sifatida o'zini namoyon etgan. Uyg'onish davri namoyondalaridan biri Volter quydagi so'zlarni aytgan edi: „Men fikrlaringizdan nafratlanaman ammo u fikrlaringizni himoya etish haqqini sizga berish uchun o'lishga ham roziman“. Yuqoridagi fikrlari bilan mutafakkir insonlarga qanchalik qiyin bo'lmasin qonunga, o'zi kabi boshqa vatandoshlarining haq-huquqlari va hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish eng katta axloqiy fazilat ekanini ta'kidlaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Renssans davrida adolat tushunchasiga nisbatan yondashuv o'rta asrlarda hukmron

mafкура bo'lgan sxolastikadan uzoqlashib, inson markazi aniqroq aytganda gumanistik mohiyat kasb etgan. Bu davrda adolat faqatgina Xudoning amri bo'libgina qolmay balki ratsional hamda ijtimoiy tafakkur nuqtai nazaridan o'rganildi. Gumanist mutafakkirlar antik faylasuflar asarlariga takror murojaat etib adolatni aql, axloq, fazilat, tabiiy huquq va boshqa tushunchalar bilan bog'liq holda o'rgana boshladilar. Xususan, insonning hayot qadryatlari, haq va huquqlariga ahamiyat berila boshlandi. Adolatning maqsadi esa jamiyatda ijtimoiy ko'lamda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash o'laroq idrok etila boshlandi. Bu esa siyosiy ma'noda davlatning rolini qayta belgilanishiga olib keldi. Adolat esa mustahkam boshqaruv kuchiga ega hokimiyat bilan o'zaro aloqador holda idrok etila boshlandi. Huquqning ustunligi tushunchasi sekin astalik bilan o'zib bordi, mansabdorlarning suiste'molliklariga qarshi huquqiy chegaralar qo'yib borildi. Bu va bu kabi siyosiy, Ijtimoiy o'zgarishlar zamonaviy huquqning asosini tashkil etish bilan bir qatorda o'z davri va bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo'qotmaydigan g'oya hamda fikrlarni vujudga keltirgan hisoblanadi.

### References:

1. Makiavelli Hukmdor. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 69 bet
2. T.Mor, Utopiya, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 30 bet
3. T.Mor, Utopiya, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2025, 67 bet
4. J.J.Russo, Ijtimoiy shartnoma, TRUST AND SUPPORT nashiryoti, 2024, 23 bet
5. Osman Erdal ŞAHİN. 20. Yüzyıl Batı Ve İslam Düşüncesinde Sosyal Adalet Yaklaşımı.- 2019



6. Doç.Dr. Arslan Tprakkaya(Erciyes Ün.v.Felsefe Bİ.). Sosyal adalet kavramı sadece bir ideal midir?
7. Dr. Nasi Aslan. ADALET MEDENİYETİ ÜZERİNE.-2016Osman Erdal ŞAHİN. 20. Yüzyıl Batı Ve İslam Düşüncesinde Sosyal Adalet Yaklaşımı.-2019
8. Doç.Dr. Arslan Toprakkaya(Erciyes Ün.v.Felsefe Bİ.). Sosyal adalet kavramı sadece bir ideal midir?.
9. Prof. Dr. Nasi Aslan. ADALET MEDENİYETİ ÜZERİNE.-2016
10. Natlib.uz
11. e-base.natlib.uz.
12. Ziyouz.com
13. Library.ziyonet.uz
14. Kitob.uz
15. Uzlib.uz
16. WWW.dindersi.com
17. <http://dergipark.gov.tr/bseusbed>
18. <http://www.akademikbakis.org>
19. [www.iktisatyayinlari.com](http://www.iktisatyayinlari.com)